

YASHIL IQTISODIYOTNI BAHOLASH AMALYOTI VA INDIKATORLARI

*Usmonov Murodbek- Samarqand Iqtisodiyot va Servis
Instituti, "Raqamli iqtisodiyot" kanfedrasi asistenti.*

+998937220855

*Urunkov Alijon Jasur o'g'li- Samarqand Iqtisodiyot va Servis Instituti
IK-423 talabasi.*

+998770444655

*Mirjalol Malikov Abdulla o'g'li - Samarqand Iqtisodiyot va Servis
Instituti IK-423 talabasi.*

+998993893365

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yashil iqtisodiyotni baholashning komplek ususli, Jhon banki yondashuvi, Yashil iqtisodiyotni baholashda xalqaro tashkilotlarning yondashuvi umumiy va farqli jihatlari, UNEP va yashil iqtisodiyotga o'tishni baholash tushunchalari keng talqinda yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ekologik komponentlar, inson kapitali, jahon banki instituti, yashil model, GGGI va Dual Ctitien xalqaro agentligi, ekologik chigara, devirsifikasiya, reyting usuli, Ijtimoiy Tenglikka Erishish, jigarrang iqtisodiyot, umumiy jihat, farqli jihat.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini amaliyatga tatbiq etish o‘z navbatida samarali qarorlar qabul qilish va zarur chora-tadbirlarni oshirishga ko‘maklashuvchi, “yashil iqtisodiyot”ni baholashning ishchonchli ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Kompliks usul- Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot”ni baholash tizimini shakllantirishga oid turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan biri iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlar qiymatini **kompleks**, ya’ni pulda baholashdir. Misol uchun, jismoniy, tabiiy va inson kapitalining yig’indisi sifatida

baholanadigan milliy boylik hajmi shu tariqa hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish va “yashil o‘sishni kompleks baholash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

*“yashil o‘sish”ning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini ifodalovchi ustuvor indikatorlami tanlab olish;

* ular yordamida dinamikada samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblash, “yashil o‘sish” jarayoni sur’atlarini aniqlash, “yashil siyosat”ni tartibga solish va monitoringini olib borish;

* samaradorlikning maqsadli ko‘rsatkichlarini tanlash va ularga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

* ko‘rsatkichlar hisobi va prognozi, jumladan ularga ta’sir qiluvchi omillar imkoniyatlariga muvofiq “yashil o‘sish”ning samaradorlik bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash.

Jahon banki yondashuvi: Jahon banki mutaxassislarining hisobkitoblariga ko‘ra, 1995-2014 yillarda jahon milliy boyligining hajmi deyarli ikki martaga ortgani holda uning tarkibida tabiiy kapital bor-yo‘g‘i 9,0%ni (shundan o‘rmonlar himoya qilinadigan hududlar 2,0%ni, haydaladigan yerlar va energiya resurslari (qazib chiqariladigan yoqilg‘i 3,0%ni) tashkil etmoqda va uning jami milliy boylik tarkibidagi ulushi deyarli o‘zgannagan.

Jahon banki ma’lumotlari tahlili barqaror rivojlanish maqsadlari ustun darajada yuqori daromadli mamlakatlarda amalga oshayotganligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, 2014 yilda IHHT a’zosi bo‘lmagan yuqori daromadli mamlakatlar milliy boyligining 70%ini inson kapitali tashkil etgani holda IHTT a’zosi hisoblanmagan yuqori daromadli mamlakatlarda inson kapitalining ulushi 42%ga teng. Ushbu holat oxirgi guruh mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish ustun darajada tabiiy resurslar hisobiga ta’minlanayotganligidan dalolat beradi.

Jahon Banki tomonidan qo‘llaniladigan “yashil iqtisodiyot” ko‘rsatkichlari barqaror iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari tasnifiga kirib, inkyuziv yashil o‘sish ko‘rsatkichlaridan iborat. Jahon Banki Instituti ilmiy izlanishlariga ko‘ra barqaror iqtisodiy o‘sishning inkyuzivligini ta’minlovchi yo‘nalish bu

“yashil o’sishdir. Shu bois Jahon Banki tomonidan qo’llanilayotgan “yashil iqtisodiyot” ko’rsatkichlari “yashil o’sish”ning quyidagi yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlanadi: atrof muhit, iqtisodiy va ijtimoiy. Ular jamiyat, iqtisodiyot va atrof muhit uchun natijaviy samaradorlikni ifodalash uchun xizmat qiladi

Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan ko’rsatkichlar “yashil o’sish” natijasida erishish mumkin bo‘lgan potensial iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholashga xizmat qiladi. Jahon Bankining Boylik buxgalteriyasi va ekotizim xizmatlari audit (Wealth Accounting and Valuation of Ecosystem Services - WAVES) BMTning Statistik Komissiyasining Ekologik va iqtisodiy hisoblar tizimini (System of Environmental and Economic Accounting - SEEA) joriy qilishda texnik ko’mak berib kelmoqda.

Yashil iqtisodiyotni baholashda xalqaro tashkilotlarning yondashuvi: umumiyligi va farqli jihatlari. Barqaror rivojlanishga erishishda inson farovonligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va atrof muhitga yetkazilayotgan zararni minimallashtirish maqsadi xalqaro tashkilotlar tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni baholashdagi **umumiyligi jihat** hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan “yashil iqtisodiyot”ni baholashdagi **farqli jihatlar** esa ular tomonidan qo’llanilayotgan ko’rsatkichlar tizimida namoyon bo‘ladi. Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot”ni baholashda “yashil o’sish” ko’rsatkichlaridan keng foydalaniladi. Jumladan, 2009 yilda 34 mamlakat vakillari tomonidan “yashil o’sish” deklaratsiyasi imzolandi va uzoq muddatli davrda barqaror iqtisodiy o’sishni faqatgina “yashil o’sish” hisobidan ta’minlanishi mumkin, degan xulosa qilingan. “Yashil iqtisodiyot” barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minalashga xizmat qiluvchi konsepsiya hisoblanadi. Ammo ushbu konsepsiya doirasida “yashil o’sish”ni ta’minlovchi va “jigarrang iqtisodiyot”dan “yashil iqtisodiyot”ga o’tish jarayonlarini tavsiflovchi ko’rsatkichlar tizimi rasmiy ravishda qabul qilinmagan. Shu sababdan hozirda “yashil iqtisodiyot” va yashil o’sish”ni tavsiflash uchun Global yashil o’sish instituti (Global Green growth Institute - GGGI), 1HTT, UNEP, Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ko’rsatkichlar tizimidan foydalanib kelinmoqda. Mazkur

ko'rsatkichlar tizimining ayrimlari o'xshash bo'lgani holda, ayrimlari bir-biridan keskin farqlanadi. Ushbu holat ustun darajada xalqaro tashkilotlarning "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasiga nisbatan qanday yondashuvda ekanligiga bog'liq.

Jahon Banki atrof muhit strategiyasida "yashil o'sish" samarali, toza va moslashuvchan ijtiinoiy-iqtisodiy o'sish sifatida ta'riflanadi.

IHTT yondashuvi esa inson farovonligi bilan bog'liq tabiiy aktivlar barqarorligini ta'minlagan holda iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'maklashishga asoslanadi.

GGGI va Dual Citizen xalqaro agentligi "yashil iqtisodiyot"ga o'tishni baholashdan reyting usulidan foydalanadi.

Qayd etib o'tilgan yondashuvlarda "yashil iqtisodiyot" va "yashil o'sish"ni baholashning umumiy jihatlari bo'lishi bilan birga farqli tomonlari ham mavjud. Shu bois global darajada hozirga qadar umumlashgan standart ko'rsatkichlar tizimi qabul qilinmagan.

UNEP "yashil iqtisodiyot"ni baholashda atrof muhit o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirish asosida farovonlikni oshirish va ijtimoiy tenglikka erishishni maqsad qilib qo'ygan.

UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-Muhit Dasturi) "yashil iqtisodiyot"ni baholashda atrof-muhit o'zgarishi bilan bog'liq risklarni kamaytirish, farovonlikni oshirish va ijtimoiy tenglikka erishishni asosiy maqsad qilib qo'ygan. UNEP tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvalar yashil iqtisodiyotning bir qator muhim tamoyillarini o'z ichiga oladi.

UNEP Yashil Iqtisodiyotni baholashda asosiy yo'nalishlari:

***Atrof-muhit o'zgarishiga qarshi kurash:** UNEP yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi sifatida atrof-muhitni himoya qilishni va ekologik barqarorlikni ta'minlashni belgilaydi. Bu, ayniqsa, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi, suv tanqisligi kabi ekologik risklarga qarshi kurashish orqali amalga oshiriladi.

* **Farovonlikni oshirish:** UNEP yashil iqtisodiyot orqali nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki odamlarning farovonligini oshirishni ham maqsad qiladi. Bu, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan bog'liq.

* **Ijtimoiy tenglikka erishish:** UNEP yashil iqtisodiyotning ijtimoiy jihatiga katta e'tibor beradi. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyatdagi tenglikni, adolatni va ijtimoiy farovonlikni oshirishga yo'naltirilgan.

Xulosa: “Yashil iqtisodiyot”ni amaliyotga tatbiq etish, samarali qarorlar qabul qilish va zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mustahkam va ishonchli ko'rsatkichlar tizimi zarur. Bunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarning kompleks baholanishi katta ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda “yashil iqtisodiyot”ni baholash uchun turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ularda “yashil o'sish”ning samaradorligini baholash, ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar orqali o'sishni kuzatish va prognoz qilish ko'zda tutiladi. Jahon Banki, UNEP, GGGI kabi xalqaro tashkilotlar ushbu yondashuvlarni ishlab chiqib, o'z ko'rsatkichlar tizimlarini taqdim etmoqda.

Xalqaro tashkilotlar, masalan, UNEP, yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadlarini atrof-muhit o'zgarishiga qarshi kurashish, farovonlikni oshirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash deb belgilaydi. Biroq, hozirgi kunda global miqyosda umumlashgan va rasmiy ravishda qabul qilingan yagona ko'rsatkichlar tizimi mavjud emas. Shunday qilib, “yashil iqtisodiyot”ni baholashda mavjud farqliliklar va xalqaro tashkilotlarning turli yondashuvlari ko'rsatmoqda, chunki bu konsepsiya hali to'liq rivojlanmagan va har bir tashkilot uni o'z tamoyillari asosida tushunib va qo'llamoqda.

Shu bilan birga, “yashil iqtisodiyot”ning istiqboli, barqaror iqtisodiy o'sish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikka erishish yo'lida muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun kompleks va integratsiyalashgan ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon Banki. (2014). Wealth Accounting and Valuation of Ecosystem Services (WAVES).
2. BMT Atrof-Muhit Dasturi (UNEP). (2020). Green Economy and Sustainable Development: Achieving the SDGs.
3. GGGI (Global Green Growth Institute). (2017). Green Growth Index Methodology.
4. BMTning Statistik Komissiyasi. (2013). System of Environmental and Economic Accounting (SEEA).
5. Jahon Banki. (2012). Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development.
6. UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-Muhit Dasturi). (2013). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication.
7. UNEP. (2015). The Role of Green Economy in Achieving Sustainable Development Goals.
8. UNDP (United Nations Development Programme). (2014). Human Development Report 2014: Sustaining Human Progress.